

2/2025,
mart-
aprel
(№ 00076)



BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDA EKSPORTNING AHAMIYATI

Kulimova Xusnida Maxsud qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dosenti, PhD

Email: kulimovaxusnida@gmail.com

Orcid: 0009-0002-8176-8670

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss2/661

Аннотасија

Ushbu maqolada mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘shini ta‘minlashda eksportning ahamiyati keltirilgan, shu bilan birgalikda mamlakat eksport dinamikasi, uning yirik hamkor davlatlar bilan eksport hajmi, eksportyor korxonalar eksport operatsiyalarini amalga oshirayotganda qo‘llaniladigan soliq va boshqa moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga oid imtiyozlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘rganilgan. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda eksportning ahamiyatini o‘rganishga doir ilmiy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: eksport, tovar, bojxona, korxonalar, valyuta, maxsulot, tashqi iqtisodiy faoliyat, iqtisodiyot, moliyaviy imtiyozlar, qo‘shilgan qiymat solig‘i, soliq imtiyozlari, soliq.

ЗНАЧЕНИЕ ЭКСПОРТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

Кулимова Хуснида Махсудовна

PhD, доцент Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация

В статье рассматривается значение экспорта в обеспечении устойчивого экономического роста страны, а также рассматривается информация о динамике экспорта страны, объемах ее экспорта в основные страны-партнеры, а также налоговых и других льготах финансовой поддержки, которые получает предприятие-экспортер при осуществлении экспортных операций. Также были выдвинуты научные предложения по изучению значения экспорта в развитии экономики страны.

Ключевые слова: экспорт, товары, таможня, предприятия, валюта, товар, внешнеэкономическая деятельность, экономика, финансовые выгоды, налог на добавленную стоимость, налоговые льготы, налог.

THE IMPORTANCE OF EXPORTS IN ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH

Kulimova Khusnida Makhsud kizi

PhD, Associate Professor, Tashkent State University of Economics

Abstract

This article presents the importance of exports in ensuring the country's sustainable economic growth, and also studies data on the country's export dynamics, its export volume with major partner countries, tax and other financial support benefits applied to exporting enterprises when carrying out export operations. It also provides scientific proposals for studying the importance of exports in the development of the country's economy.

Key words: export, goods, customs, enterprises, currency, product, foreign economic activity, economy, financial benefits, value added tax, tax benefits, tax.

Kirish

Ma'lumki, milliy iqtisodiyotimizda eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida yuqori qo'shilgan qiymat ega mahsulotlarni hajmini oshirishda eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning maqsadlilikini ta'minlashga shuningdek, eksport salohiyatini oshirishda eksportbop tovarlar ishlab chiqarishga va xizmatlar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularni eksport qilish uchun zarur sharoit va imkoniyatlar taqdim qilinmoqda va bu o'z samarasini bermoqda. Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Dunyodagi globallashtirish hamda jadal integrasiyalashuv jarayonlarining ishtirokchisi bo'lgan O'zbekiston ham o'zining xalqaro iqtisodiy munosabatlarini muntazam tarzda rivojlantirib kelmoqda. Bunda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda eksportning ahamiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jumladan mamlakatimizda “Jami eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazish” [1] belgilangan. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda eksport faoliyatini yanada rivojlantirish, tadbirkorlar o'rtasida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishda moliyaviy imtiyozlarni qo'llash tartibini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyotida eksport salohiyatini yanada rivojlantirishning ahamiyati dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

D.Chakraborte, S.Mukerje ta'kidlashlaricha, mintaqaviy infratuzimani rivojlantirish mintaq va undan tashqarida eksport-import operatsiyalari uchun bojxona chegarasida ham transport koridorlarini taqdim etib, savdo vaqtini kamaytirishga ham yordam beradi, shuningdek, mintaqadagi davlatlarni dunyoning qolgan qismlari bilan birlashtiradi [2].

N.M.Rasulov, B.B.Mullabaevlar korxonalar eksport salohiyatini oshirishda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishning o'rni muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaganlar [3]. Innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish o'z navbatida ushbu korxonaning soliq va bojxona imtiyozlaridan qay darajada foydalana olish qobiliyatiga ham bog'liqligi alohida ahamiyatga ega.

V.Kvink tadqiqotlarida eksport raqobatbardoshligining XXI asrdagi ko'rinishiga oid ilmiy nazariy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikriga ko'ra, eksportni rag'batlantirishning ochiq bozor usuli kengroq samara beradi. Ochiq bozor usuli soliq, boj bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatlarni ham o'z ichiga oladi [4].

J.Felip va U.Kumar savdoni osonlashtirishning Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi savdosi rivojlanishidagi ahamiyatini tadqiq qilib, eksportchi mamlakatlar uchun infratuzilma

savdo oqimiga katta ta'sir ko'rsatishini, import qiluvchi mamlakat uchun bojxona samaradorligiga erishish muhim ekanligini tadqiq qilgan [5].

Sh.D.Ergashodjaeva tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari eksport faoliyatini rag'batlantirish jahon bozorining tarkibi va rivojlanish xususiyatlariga bog'liqligini ko'rsatadi [6].

Muallifning fikriga ko'ra, eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalani ko'paytirish aholini ish bilan ta'minlashga, mamlakatda valyuta tushumining ortishiga, yangicha texnika va texnologiyalarni qo'llash, xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga shu bilan birga mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda eksport operasialarining ahamiyati ko'rsatib berilgan ilmiy analiz va guruhlash kabi metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar


Ma'lumki, eksportyor korxonaning eksport operasialarini amalga oshigayotganda bir qancha soliq va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlashga oid imtiyozlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

eksportchi korxonalarni moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash maqsadida Eksportni rag'batlantirish agentligi tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda Agentlik tomonidan eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalariga bir qator moliyaviy yordamlar ko'rsatilib kelinmoqda. Masalan transport xarajatlarining 50 foizgacha bo'lgan qismi agentlik tomonidan qoplab beriladi. Bundan tashqari, xalqaro standart sertifikatlari joriy etilganda, ularning to'lovlari ham agentlik tomonidan qoplanadi. Xalqaro ko'rgazmalar, yarmarkalarda tadbirkorlar ishtirokini ta'minlashda ham xarajatlarning ma'lum bir qismi agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

eksportyor korxonalar eksportga chiqarayotgan mahsulotlar uchun yagona soliq va foyda solig'idan ozod etildi. Deylik, bir korxonada ishlab chiqarayotgan mahsulotning 30 foizini eksport qilsa, o'sha 30 foiz mahsulot uchun foyda va yagona soliqdan ozod etiladi.

to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish usulida eksport qilishdan olingan foyda eksportga realizasiya qilishdan olingan daromad va ushbu daromad bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Unga 0% stavka bo'yicha soliq solinadi. Qolgan foydaga, shu jumladan – kursdagi farqdan olingan foydaga soliq solinadi.


- eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar yana bir soliq imtiyozi ya'ni qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarib olish imkoniga ega ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Ya'ni eksportyor korxonalariga qo'shilgan qiymat solig'ini kelib tushgan valyuta tushumining ulushida hisobga olish, import qilishda soliqni to'lash bo'yicha kechiktirishda qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha kechiktirish taqdim etilganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish kabi imtiyozlar berilgan.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi eksport dinamikasi (mlrd AQSH dollari) [7]

Tahlil ma’lumotlari shuni ko’rsatadiki, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekistonning eksport hajmi 27 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, 2023-yilning mos ko’rsatkichiga nisbatan 11,2 foizga ko’payganligini ko’rishimiz mumkin. Bu borada shuni ta’kidlash lozimki, amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida so’nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag’batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida eksportimiz hajmida oshganligini ko’rsatadi. 2023 yilda O‘zbekistondan oltin eksporti o‘tgan yilga nisbatan qariyb ikki baravar oshdi. Bundan tashqari, xorijga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va g‘alla, avtomobil ehtiyot qismlari va neft mahsulotlari sotish hajmi yil davomida oshdi. Rangli metallar, gaz, o‘g‘itlar, elektr energiyasi va to‘qimachilik kabi mahsulotlar eksportining kamayishi kuzatilmoqda. Jumladan, o‘tgan yilning yanvar-dekabr oylarida respublikadan 3 050,0 million dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksport qilinib, 65 ta davlatga 639 turdagi to‘qimachilik mahsulotlari yetkazib berilgan.

Shuningdek, quyidagi rasm ma’lumotlaridan shuni ko’rishimiz mumkinki, 2024 yil (yanvar-avgust) davomida O‘zbekistonning eksportdagi asosiy hamkori sifatida Rossiya va Xitoy davlatlariga to‘g‘ri kelgan. O‘zbekiston Rossiya va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro eksport hajmi mutanosib ravishda 2459,6 va 1370,6 mln AQSh dollarini tashkil qilgan.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar bilan eksport dinamikasi (mln. AQSH dollari) [7]

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyati asosan yirik hamkor davlatlar Rossiya va Xitoy Xalq Respublikasi bilan o‘zaro eksport ulushi savdo munosabatlarida oshib bormoqda. Shu bilan birga, 2-rasmdagi statistik ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining eksport tarkibida tovarlar diversifikatsiyasi, ya’ni eksport qilinayotgan tovarlar turlari ko‘payib borayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, 2020-2024 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasidan Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya, davlatlariga turli xildagi bir nechta tovar va xizmatlar eksport qilingan. O‘zbekiston Respublikasi tadbirkorlari tomonidan tovarlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish va yirik hamkor davlatlarga eksport qilish uchun yanada keng qulayliklar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, eksport salohiyatini yanada kuchaytirish, eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish va uning jozibadorligini yanada oshirish va tashqi savdoda bojxona faoliyatini yanada takomillashtirishning amaliyotga joriy etilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Mamlakatning iqtisodiy mustahkamligi, barqaror rivojlanishi, uning jahon xo‘jaligi tizimiga muvaffaqiyatli integrallashuvi ko‘p jihatdan tashqi savdo faoliyatida aynan eksport faoliyatida, uning transport va bojxona xizmatlari, xalqaro savdoning globallasuvi talablariga mos ravishda takomillashishiga ham bog‘liq. Mazkur faoliyatlarning amalga oshirilishi mamlakatda eksport mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishga imkoni yaratadi.

2. Eksport qilinadigan tovarlar turlari chegaradosh viloyatlardan yirik hamkor davlatlarga eksport qilinganda, ularning tannarxi transport xarajatlari hisobiga kamayishiga va eksport hajmining oshishiga xizmat qiladi.

3. Kelgusidagi eksportbop bozorlarni aniqlash va shu bilan birga, xorijdagi eksportyor korxonalar faoliyatini chuqurroq o‘rganish tahlil qilib mamlakatda eksportbop mahsulot va tovarlar ishlab chiqarishni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Debashis Chakraborty & Sacchidananda Mukherjee. How Trade facilitation Measures influence Export Orientation, Empirical Estimates with Logistics Performance Index data // Journal of Economics Library. 2016.

3. N.M.Rasulov., B.B.Mullabaev. Innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish-korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №5 senyabr-oktyabr, 2014 yil.

4. V.Kvint. Strategy for the global market. New York, London:Routledge Taylor & Francis, 2015. 520 p.

5. Felipe J., and Kumar U. The role of trade facilitation in Central Asia: A gravity model, Working Paper, №628.-New York: Levy Economics Institute, 2010

6. Sh.D.Ergashodjaeva. Xalqaro raqobat. O‘quv qo‘llanma - T.: TDIU, 2013.-328 b.

7. www.stat.uz-rasmiy sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.